

Toshkent farmasevtika institutining  
2019 yil \_\_\_\_ fevraldagi \_\_\_\_ - sonli  
buyrug'iga 1-ilova

**“Vatan himoyasi - har bir fuqaroning sharafli burchi”  
mavzusidagi insholar tanlovi  
NIZOMI**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur tanlov “Harbiy xizmatchilarni savodxonligini oshirish va ma’naviy tadbirlarni tashkil etish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi”ning (2018 yil 11 dekabrda tasdiqlangan) 9-bandida belgilangan vazifalar hamda “Institut tizimida 2019 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo’yicha chora-tadbirlar dasturi”ning 14(17)-bandida belgilangan vazifalar va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 26 yanvardagi 78-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minash maqsadida tashkil etiladi.

2. “Vatan himoyasi - har bir fuqaroning sharafli burchi” mavzusidagi tanloviga institutda tahsil olayotgan talabalar o‘zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadi.

3. Tanlovning institut bosqichini tashkil etish va o‘tkazish jarayoni institutning “Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

**II. Tanlovning maqsad va vazifalari**

4. Tanlovning asosiy maqsadi – yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik, yurt tinchligi, mamlakat xududining daxlsizligini asrashga har bir fuqaro bevosita va bilvosita mas’ul ekanligi, aholining tinch-farovon umrguzaronlik qilishini ta’minlashda har bir yosh avlod o‘zining mardligi bilan tashqaridan kelishi mumkin bo‘lgan har qanday tahdidlarga qarshi turish va bu yo‘lda jon fido etish sharafli burch ekanligi borasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish.

yoshlar o‘rtasida harbiy xizmatga safarbarlik va mazkur sohaga qiziqishlarini oshirish borasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish;

institutda yoshlarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish;

yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste’dodli yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

**III. Tanlovni o‘tkazish bosqichi va muddatlari**

5. “Vatan himoyasi – har bir fuqaroning sharafli burchi” mavzusidagi tanlov uch bosqichda o‘tkaziladi.

Birinchi bosqich – institutning fakultetlari akademik guruhlar talabalar o‘rtasida joriy yil fevral oyining oxirgi shanbasida o‘tkaziladi.

Ikkinchi bosqich – institut miqyosida fakultetlararo ularning g‘oliblari o‘rtasida mart oyining oxirgi shanbasida o‘tkaziladi.

Uchinchi bosqich (yakuniy) – respublika oliy ta’limlari g’oliblari o’rtasida joriy yil aprel oyining uchinchi o’n kunligida o’tkaziladi.

#### **IV. Tanlovni tashkil etish va o’tkazish.**

6. Tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichini o’tkazish bo’yicha institut rektori buyrug’i bilan Ishchi guruhi va soha professor-o’qituvchilari, olimlari, mutaxassislari, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda hakamlar Hay’ati tuziladi.

Talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy ish (insho)lar fakultetlar va institut kesimida tuzilgan hakamlar Hay’ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi.

7. Tanlovning uchinchi bosqichi OO’MTVda tashkil etilgan Ishchi guruhi tomonidan vazirlik huzuridagi “Ma’naviyat va ma’rifat” markazida o’tkaziladi. Tanlovning yakuniy bosqichi g’oliblarini aniqlash bo’yicha hakamlar Hay’ati tuziladi. Hay’at tarkibiga tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarning vakillari va soha bo’yicha yetuk mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

#### **V. Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

8. Tanlovga taqdim etiladigan insholar quyidagi mezonlarda baholanadi:

- mavzuning mazmun-mohiyati to’laqonli ochib berilganligi;
- ijodiy ish (insho)ning stilistik va grammatik jihatdan to’g’ri yozilganligi;
- mavzuni yoritishda adabiyotlardan foydalanganlik darajasi va tahliliy yondashuvlar;
- mustaqil fikrlarning aniq bildirilganligi;
- mavzuni yoritishda o’ziga xos ijodkorlik xususiyatlari ifoda etilganligi.

9. Insho matni talabalar tomonidan yozma shaklda bayon etiladi va har bir mezon 10 ballik tizim asosida baholanadi. (jami 50 ball)

#### **VI. Hujjatlarni taqdim etish tartibi**

10. Institutda g’olib bo’lgan, 1-o’rinni egallagan talabaning hujjatlari (Institut Ishchi guruh bayonnomasi va qarori, g’olib bo’lgan talabaning ijodiy ish (insho)lari va 10\*15 hajmdagi fotosurati vazirlik Ishchi guruhiga **joriy yilg aprel oyining 20 sanasiga** qadar, 2 nusxa yozma va 1 nusxa elektron (word) variantda (tel: 246-95-43, e-mail:markaz.mtg@edu.uz) taqdim etiladi.

11. Tanlovga taqdim etiladigan ijodiy ish (insho)lar kompyuter Word dasturida, Times New Roman shriftida 1 intervalda, chapdan 30 mm, o’ngdan 15 mm, yuqori va pastdan 25 mm joy qoldirgan holda yozilgan bo’lishi hamda matnlar ilmiy, texnik, stilistik tahrir qilingan bo’lishi shart. Yozma materiallarning 1 nusxasida talabalarning o’qish joyi, fakulteti, kursi va ta’lim yo’nalishi to’liq ko’rsatiladi, 2 nusxasida o’qish joyi, fakulteti, kursi va ta’lim yo’nalishi ko’rsatilmaydi.

#### **VII. Tanlov g’oliblarini taqdirlash**

13. Tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichida yuqori – 1,2,3 – o'rinni egallagan talabalar institut tomonidan maxsus diplom va moddiy rag'batlantiriladi. Shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan talabalar institut rasmiy veb-saytida yoritiladi.

14. Tanlov g'oliblari (1-,2- va 3-o'rin) bo'lgan talabalar quyidagi tartibda pul mablag'lari bilan rag'batlantiriladi:

1-o'rin - eng kam oylik ish haqining 5 baravari;

2-o'rin - eng kam oylik ish haqining 4 baravari;

3-o'rin - eng kam oylik ish haqining 3 baravari;

Shuningdek, g'olib talabalar institutning diplomi, faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi. Talabalarning eng sara ijodiy ishlari institut rasmiy veb-saytida yoritiladi.

Toshkent farmasevtika institutining  
2019 yil \_\_\_\_ fevraldagi \_\_\_\_ - sonli  
buyrug'iga 2-ilova

**“Men nechun sevaman O‘zbekistonni”  
mavzusidagi insholar tanlovi  
NIZOMI**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur tanlov “Harbiy xizmatchilarni savodxonligini oshirish va ma’naviy tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi”ning (2018 yil 11 dekabrda tasdiqlangan) 9-bandida belgilangan vazifalar hamda “Institut tizimida 2019 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ning 14(17)-bandida belgilangan vazifalar va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 26 yanvardagi 78-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minash maqsadida tashkil etiladi.

2. “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” mavzusidagi tanlovga institutda tahsil olayotgan talabalar o‘zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadi.

3. Tanlovning institut bosqichini tashkil etish va o‘tkazish jarayoni institutning “Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

**II. Tanlovning maqsadi va vazifalari**

4. Tanlovning asosiy maqsadi – talaba-yoshlar qalbida vatanparvarlik, yurt kelajagi va mamlakat taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda erishilayotgan ulkan zafarlarga daxldorlik xislatlarini shakllantirish, shuningdek, o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat;

- institut yoshlarini dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish;

- yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, o‘z iqtidorlarni namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste’dodli yoshlarni har tomonlama rivojlantirish;

- yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatli, intellektual salohiyati, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash.

**III. Tanlovni o‘tkazish bosqichi va muddatlari**

5. “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” mavzusidagi tanlov uch bosqichda o‘tkaziladi.

Birinchi bosqich - institut fakultetlari, akademik guruhlari talabalari o‘rtasida joriy yil fevral oyining uchinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi.

Ikkinchi bosqich - institut miqyosida fakultetlararo birinchi bosqich g‘oliblari o‘rtasida mart oyining birinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi.

Uchinchi bosqich (yakuniy) - respublika oliy ta'lim muassasalari g'oliblari o'rtasida joriy yil aprel oyining uchinchi o'n kunligida o'tkaziladi.

#### **IV. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish.**

6. Tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichini o'tkazish bo'yicha institut rektori buyrug'i bilan Ishchi guruh va soha professor-o'qituvchilari, olimlari, mutaxassislari, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda hakamlar Hay'ati tuziladi.

Talabalar tomonidan yo'nalishlar bo'yicha tayyorlangan ijodiy ishlar fakultetlar va institut kesimida tuzilgan hakamlar Hay'ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi.

7. Tanlovning uchinchi bosqichini tashkil etish va o'tkazish OO'MTV qoshida tashkil etilgan Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi. Tanlovning yakuniy bosqichi g'oliblarini aniqlash bo'yicha hakamlar Hay'ati tuziladi.

#### **V. Tanlov shartlari va baholash mezonlari.**

8. Tanlovga taqdim etiladigan insholar quyidagi mezonlarda baholanadi:

- mavzuning mazmun-mohiyati to'la va ravon ochib berilganligi;
- ijodiy ishlarning stilistik va grammatik jihatdan to'g'ri yozilganligi;
- mavzuni yoritishda adabiyotlardan foydalanganlik darajasi va tahliliy yondashuvlar;
- mustaqil fikrlarning aniq bildirilganligi;
- mavzuni yoritishga o'ziga xos ijodkorlik xususiyatlari ifoda etilganligi.

9. Har bir mezon 10 ballik tizim asosida baholanadi - jami 50 ball.

#### **VI. Hujjatlarni taqdim etish tartibi.**

10. Institutda ikkita yo'nalish bo'yicha g'olib bo'lgan, 1- va 2-o'rinni egallagan talabalarining hujjatlari (*Institut tashkiliy qo'mitasi bayonnomasi va qarori, g'olib bo'lgan talabaning ijodiy materiallari va 10\*15 xajmdagi fotosurati*) Respublika tashkiliy qo'mitasiga joriy yil mart oyining oxiriga qadar 2 nusxa yozma, 1 nusxa elektron variantda (tel: 246-95-43, e-mail: [markaz.mtg@edu.uz](mailto:markaz.mtg@edu.uz)) taqdim etiladi.

11. Tanlovga taqdim etiladigan maqolalar kompyuter Word dasturida, Times New Roman 14 shriftida 1 intervalda, chapdan 30 mm, o'ngdan 15 mm, yuqori va pastdan 25 mm joy qoldirgan holda yozilgan bo'lishi hamda matnlar ilmiy, texnik, stilistik tahrir qilingan bo'lishi shart. Yozma materiallarning 1 nusxasida talabalarining o'qish joyi, fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi to'liq ko'rsatiladi, 2 nusxasida o'qish joyi, fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi ko'rsatilmaydi.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan ijodiy ishlar qabul qilinmaydi.

#### **VII. Tanlov g'oliblarini taqdirlash.**

13. Tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichida yuqori – 1,2,3 – o'rinni egallagan talabalar institut tomonidan maxsus diplom va moddiy rag'batlantiriladi. Shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan talabalar institut rasmiy veb-saytida yoritiladi.

14. Tanlov g'oliblari (1-,2- va 3-o'rin) bo'lgan talabalar quyidagi tartibda pul mablag'lari bilan rag'batlantiriladi:

1-o'rin - eng kam oylik ish haqining 5 baravari;

2-o'rin - eng kam oylik ish haqining 4 baravari;

3-o'rin - eng kam oylik ish haqining 3 baravari;

Shuningdek, g'olib talabalar institutning diplomi, faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi. Talabalarning eng sara ijodiy ishlari institut rasmiy veb-saytida yoritiladi.